Oliy ta'limda kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlari.....	611
<i>Axmedova Zilola Muxtor qizi</i>	
Оптимизация процесса самообразования студентов русской филологии в условиях современного образовательного пространства	617
<i>Азизова Д. А.</i>	
Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi.....	622
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari.....	625
<i>Xudaybergenova Adolat Usmanovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi.....	629
<i>Jumanova Fotima Uralovna, Azimova Zebxon Tohirovna</i>	
4K yondashuvi asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish.....	635
<i>Boboyeva Nafosat Tulqin qizi</i>	
O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....	639
<i>Xolmatova Ziroatxon Anvarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....	642
<i>Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi</i>	
O'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligi.....	645
<i>Madaminov Oribdjan Nishanbayevich</i>	



Ta'lim jarayonida gamifikatsiya va didaktik o'yinlar orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	648
<i>Xayrullina Parizod Farg'at qizi</i>	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....	651
<i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>	
Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi	660
<i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....	663
<i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>	
Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'rni va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	



4K YONDASHUVI ASOSIDA DARS TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQUISH

Boboyeva Nafosat Tulqin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri hisoblangan 4K kompetensiyalari (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik) asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini kuchaytirish hamda jamoada samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni loyihalashning metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, an'anaviy topshiriqlardan farqli ravishda 4K yondashuvi asosida tuzilgan dars vazifalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola natijalari umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish hamda dars jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishda metodik tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: 4K kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, hamkorlik, dars topshiriqlari, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy ta'lim.

Abstract: This article analyzes the issues of developing learning tasks based on 4K competencies (critical thinking, creativity, communication, and collaboration), which are considered one of the modern pedagogical approaches in the educational process. The study highlights the methodological aspects of designing tasks aimed at developing students' independent thinking, enhancing their creative potential, and fostering effective teamwork skills. In addition, the role of learning activities designed within the framework of the 4K approach in improving educational effectiveness, compared with traditional tasks, is scientifically substantiated. The results of the study may serve as methodological recommendations for implementing a competency-based approach and modernizing the teaching process in general secondary education schools.

Key words: 4K competencies, critical thinking, creativity, communication, collaboration, learning tasks, competency-based approach, modern education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы разработки учебных заданий на основе компетенций 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация и сотрудничество), являющихся одним из современных педагогических подходов в образовательном процессе. В исследовании освещаются методические аспекты проектирования заданий, направленных на развитие самостоятельного мышления учащихся, усиление их творческого потенциала и формирование навыков эффективной работы в коллективе. Также на научной основе раскрывается роль учебных заданий, разработанных на основе подхода 4К, в повышении эффективности обучения по сравнению с традиционными заданиями. Результаты исследования могут служить методическими рекомендациями при реализации компетентностного подхода и модернизации учебного процесса в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: компетенции 4К, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, учебные задания, компетентностный подход, современное образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallashlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayoni hamda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim mazmuni va metodikasini yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ta'lim jarayoni mustaqil fikrlaydigan, muammolarni tahlil qila oladigan va ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu jihatdan 4K kompetensiyalari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu kompetensiyalar tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini qamrab oladi. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning bilimni mustaqil o'zlashtirishi va amaliy vaziyatlarda qo'llashiga xizmat qiladi. An'anaviy dars topshiriqlari esa ko'pincha tayyor bilimni qayta bayon qilishga asoslanib, o'quvchilarning ijodiy va tahliliy fikrlashini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu sababli

ta'lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlarga asoslangan topshiriqlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. 4K yondashuvi dars jarayonini interfaol tashkil etish hamda o'quvchilar faolligini oshirish imkonini yaratadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'z fikrini asoslash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dars topshiriqlarini 4K tamoyillari asosida loyihalash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantiradi va kommunikativ muhitni shakllantiradi. Kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi dars topshiriqlari mazmunini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. 4K yondashuvi asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur maqolada 4K yondashuvi asosida dars topshiriqlari ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llashga qodir bo'lishi ham muhim hisoblanadi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimida samarali natijalarga erishishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda (Qosimova va boshq., 2009).

So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar XXI-asr ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bernie Trilling va Charles Fadel (2009) ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyat sharoitida o'quvchilarda muammolarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va jamoada samarali ishlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

Shuningdek, Tony Wagner (2008) ham global miqyosdagi ta'lim tizimlarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, an'anaviy ta'lim tizimida ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Ken Robinson va Lou Aronica (2015) esa ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar asosida topshiriqlar ishlab chiqish hamda o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash masalalari keng yoritilgan. Xususan, Buriyeva (2025) adabiyot ta'limida interfaol multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchilarning faolligini oshirish hamda ularning ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tili fanini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda ham o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, Qosimova va hamkorlar (2009) ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim metodik vazifalardan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, darslik materiallari asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Ona tili darsliklari mazmuni ham o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan (Mengliyev, 2022). Darslikdagi matnlar va topshiriqlar o'quvchilarning til va nutq kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 4K kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha nazariy tadqiqotlar yetarli darajada mavjud bo'lsa-da, ona tili darsliklari matnlari asosida 4K yondashuviga mos topshiriqlarni tizimli ishlab chiqish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda ona tili darsliklari materiallari asosida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan dars topshiriqlarini ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslandi. Ish jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, darslik matnlarini didaktik jihatdan o'rganish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, loyihalash metodi asosida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dars topshiriqlari ishlab chiqildi hamda olingan natijalar tahliliy yondashuv orqali umumlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

4K yondashuvi ona tili darsligida berilgan mavzular doirasida topshiriqlar ishlab chiqish uchun juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu kompetensiya asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar esa o'quvchilarni har taraflama rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu topshiriqlar 10-sinf ona tili darsligi asosida tuzilgan bo'lib, 4K ko'nikmalarini (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) rivojlantirishga qaratilgan.

10-sinf ona tili: "Mas'uliyat" matni asosida topshiriq. Ushbu matnda so'z mas'uliyati haqida fikr yuritiladi. Inson so'zlagan so'zlarining faqatgina o'ziga emas, atrofdagilar uchun ham tushunarli bo'lishi ta'kidlanadi. Shuningdek, bu o'ta muhim ekanligi mas'uliyatli vazifa sifatida bayon qilinadi. 10-sinf o'quvchisi uchun bu matn va matn asosida berilgan ushbu topshiriq juda o'rinni. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar katta hayotga endi qadam qo'yayotgan bir paytda mas'uliyat nima ekanligini anglashlari va uni his qilishlari kerak bo'ladi. Bu matn quyidagi topshiriqlar asosida tahlil qilinadi.

O'quvchilarning so'z mas'uliyati, ya'ni o'z fikrini boshqalarga yetkazishda nutq madaniyati, aniqlik va xushmuomalalikni tushunishlarini tekshirish uchun 5 ta mantiqiy savol beriladi. Ushbu savollar 4K metodi (kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya) tamoyillariga asoslangan bo'lib, topshiriq o'quvchilarning qay darajada mas'uliyatli so'zlovchi ekanliklarini nisbiy baholashga yordam beradi.

So'z mas'uliyatini aniqlovchi mantiqiy savollar

Ushbu savollarga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarni baholash va ularning so'z mas'uliyati darajasini aniqlash uchun quyidagi baholash mezonlari (rubrika) tavsiya etiladi.

So'z mas'uliyatini baholash mezonlari

Har bir javobni 0 dan 2 ballgacha baholash mumkin.

Baho	Daraja	Tavsif
2 ball	Yuqori	O'quvchi so'zining oqibatini to'liq anglaydi, empatiya his qiladi, faktlarga tayanadi va konstruktiv yechim taklif qiladi.
1 ball	O'rta	O'quvchi vaziyatni tushunadi, lekin oqibatlarni to'liq his qilmaydi yoki fikrini yetkazishda xatoga yo'l qo'yishi mumkin (hissiyotga berilish, noaniqlik).
0 ball	Past	O'quvchi so'z mas'uliyatini umuman his qilmaydi, oqibatlarni o'ylamaydi, tajovuzkor yoki beparvo javob beradi.

Savollar bo'yicha tahlil namunalari:

1. Ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumot (kritik fikrlash) bo'yicha tahlil

2 ball: "Avval ma'lumotning rostligini tekshiraman. Rost bo'lsa ham, do'stinga zarar yetkazmaslik uchun uni ommaga chiqarmayman, do'stim bilan shaxsan gaplashaman".

1 ball: "Do'stinga aytaman, lekin baribir qiziq bo'lgani uchun repost qilaman".

0 ball: "Hamma ko'rishi kerak, bu qiziq ma'lumot".

2. Guruhdagi kechikish (kommunikatsiya) bo'yicha tahlil

2 ball: "Uni hamma oldida ayblamayman. Xususi tartibda gaplashib, muammo nima ekanligini so'rayman va qanday yordam bera olishimni aytaman".

1 ball: "Qattiq gapiraman, ishni tezlashtirishni talab qilaman, bo'lmasa bahoni pasaytiramiz deyman".

0 ball: "Uni guruhdan chiqarib tashlayman yoki o'qituvchiga aytib jazolataman".

3. Zerikkan tinglovchilar (kreativlik) bo'yicha tahlil

2 ball: "Nutqni to'xtatib, savol-javob qilaman yoki mavzuga oid qiziqarli hikoya aytib, ularni jalb qilaman".

1 ball: "Balandroq ovozda gapirishda davom etaman".

0 ball: "Nutqimni tezroq tugatib, sahnadan tushib ketaman".

4. Noto'g'ri fikr (kollaboratsiya) bo'yicha tahlil

2 ball: "Kulmayman. 'Sening fikring ham qiziq, lekin boshqa tomondan qarasak...' deb, uni kamsitmasdan o'z fikrimni qo'shaman".

1 ball: "Kulmayman, lekin 'bu noto'g'ri' deb quruq aytaman".

0 ball: "Boshqalar bilan birga kulaman".



5. Shubhali xabar (kritik fikrlash) bo'yicha tahlil

2 ball: "Uni ishonchli manbalardan tekshirmaguncha hech kimga aytmayman. Mas'uliyatni his qilaman".

1 ball: "Yaqin do'stlaringa aytaman, lekin 'aniq bilmayman' deb qo'shib qo'yaman".

0 ball: "Tezroq hammaga tarqataman, qiziq bo'ladi".

Umumiy ballar tahlili

8–10 ball: So'z mas'uliyati juda yuqori.

5–7 ball: So'z mas'uliyati o'rta, rivojlantirish kerak.

0–4 ball: So'z mas'uliyati past, tushuntirish ishlariga muhtoj.

Tadqiqot jarayonida 4K yondashuvi asosida ishlab chiqilgan dars topshiriqlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Taklif etilgan topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini shunchaki qayta bayon qilishdan ko'ra, uni tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish va muammoli vaziyatlarga yechim topishga yo'naltirdi. Natijada tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv elementlari kuchaygani kuzatildi.

Shuningdek, kommunikativ va hamkorlikka asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning guruhda ishlash, fikr almashish hamda o'z nuqtai nazarini asoslab berish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 4K yondashuvi asosida tuzilgan topshiriqlar an'anaviy reproduktiv mashqlarga nisbatan o'quvchilarning faolligi va dars jarayonidagi ishtirokini oshiradi.

Olingan natijalar pedagogik tadqiqotlarda ilgari surilgan kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari bilan uyg'un bo'lib, dars topshiriqlarini zamonaviy yondashuv asosida loyihalash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada 4K yondashuvi tamoyillari asosida dars topshiriqlari ishlab chiqildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik va hamkorlik kompetensiyalari asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yondashuvini kuchaytiradi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

4K metodikasi an'anaviy takrorlovchi topshiriqlardan farqli ravishda dars jarayonini interfaol qiladi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Natijada kompetensiyaviy yondashuvni maktablarda joriy etish orqali o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy rivojlanishini rag'batlantirish mumkinligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari 4K metodikasi asosida topshiriqlarni loyihalash bo'yicha metodik tavsiyalar sifatida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
2. Buriyeva K.E. Adabiyot ta'limida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida interfaol multimedia texnologiyalari // "Pendidikan Multimedia" jurnali. – 2025-yil, 7-son. – 73–82-betlar.
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nosir" nashriyoti, 2009. – 351 b.
4. Матчанов С. Адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. – Тошкент, 1998. – 187 б.
5. Bernie Trilling, Charles Fadel. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco, CA, USA: "John Wiley & Sons, Inc.", 2009. – 342 p.
6. Tony Wagner. The Global Achievement Gap: Why Even Our Best Schools Don't Teach the New Survival Skills Our Children Need – and What We Can Do About It. – New York: "Basic Books", 2008. – 224 p.
7. Ken Robinson, Lou Aronica. Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming Education. – New York: "Viking/Penguin", 2015. – 368 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.